
YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN "DOLZARB 30 KUN"

Ma'lumki ayni kunlarda respublikamizda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun" tadbirlari bo'lib o'tmoqda. Toshloq tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha bir qator profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Jumladan "Dolzarb 30 kun" tadbirlar doirasida 2-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida yong'in xavfsizligi hamda fuqaro muhofazasi holatlari yuzasidan o'quv amaliy mashg'ulot bo'lib o'tdi.

O'quv mashg'ulotlar davomida zilzila natijasida jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etish yuzasidan favqulotda muhofaza tuzilmalarini harakatlari namoyish etildi. Shuningdek, mutaxassislar o't o'chirish vositalari hamda zarur texnik vositalari hususida tushunchalar berib o'tdilar.

2024-07-04 17:14:15